

“QISSASI RABG‘UZIY” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOSEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sidiqova Xadiyabonu Baxtiyor qizi

Namangan viloyati, Chortoq tumani, 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

Ilmiy rahbar: Darvishev Ibrohim, Phd,

NamDU dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIV asrga mansub “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi antroponimlar tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan shaxs nomlari (antroponimlar) diniy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda semantik jihatdan o‘rganiladi. Antroponimlarning shakllanish sabablari, ularning funksional yuklamalari hamda o‘zbek onomastikasidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Qissasi Rabg‘uziy, antroponim, onomastika, antroponimika, shaxs nomlari, teonim, nisba, semantika, fonetika, morfologiya, Islom dini, tarixiy shaxslar, diniy obrazlar, tilshunoslik, madaniy kontekst, XIV asr, turkiy adabiyot, estetik yuklama, ma’naviy timsollar.*

LINGUISTICS AND SEMANTIC FEATURES OF ANTHROPONYMS IN THE WORK “QISSASI RABGUZIY”

Sidiqova Khadiyabonu Bakhtiyor daughter

Teacher of native language and literature at secondary school No. 49,
Chartok district, Namangan region.

Scientific supervisor: Darvishev Ibrohim, Phd,

Associate professor of NamDU.

Annotation

This article analyzes the anthroponyms found in Qissasi Rabghuzi, a literary work dating back to the 14th century. The personal names (anthroponyms) presented in the text are examined semantically in connection with religious, historical, cultural, and social factors. The reasons for the formation of anthroponyms, their functional meanings, and their role in Uzbek onomastics are also explored.

Keywords: *Qissasi Rabghuzi, anthroponym, onomastics, anthroponymy, personal names, theonym, nisba, semantics, phonetics, morphology, Islam, historical figures, religious images, linguistics, cultural context, 14th century, Turkic literature, aesthetic meaning, moral symbols.*

ЛИНГВОСЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «РАССКАЗ РАБГУЗИ»

Сидыкова Хадиябону Бахтиёр дочь

Учитель родного языка и литературы средней школы № 49 Чартоковского
района Наманганской области.

Научный руководитель: Дарвишев Ибрагим, доктор биологических наук,

Доцент НамГУ.

Аннотация

В данной статье анализируются антропонимы, представленные в произведении XIV века «Кисса-и Рабгузи». Имена собственные (антропонимы), встречающиеся в тексте, изучаются в семантическом аспекте с учётом религиозных, исторических, культурных и социальных факторов. Освещаются причины формирования антропонимов, их функциональная нагрузка, а также их роль в узбекской ономастике.

Ключевые слова: *Кисса-и Рабгузи, антропоним, ономастика, антропонимика, личные имена, теоним, нисба, семантика, фонетика, морфология, ислам, исторические личности, религиозные образы, лингвистика, культурный контекст, XIV век, тюркская литература, эстетическая нагрузка, нравственные символы*

O‘zbek tilshunosligi va adabiyotida yillar davomida eng yorqin diniy, ilmiy, tarixiy manba sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Asarning tilshunoslik tarafdari ham, adabiyotshunoslik tomondan tadqiq etish mumkin. Ayniqsa, diniy manbalar haqida tahmin va uydirmalar ko‘paygan zamonlarda ushbu asar ishonchli manba sifatida talqin etilgan. Manbaning tadqiq xususiyatlari birqanchadir, uni olimlar turli xususiyatlariga qarab o‘rganganlar. Tilshunoslik jihatidan esa onomastik jihatlari e’tiborga molikdir. O‘zbek tilshunosligida onomastika, ayniqsa antroponimika sohasida olib borilgan tadqiqotlar til, tarix, madaniyat va xalq dunyoqarashini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Qissasi Rabg‘uziy” esa diniy-didaktik xususiyatga ega bo‘lgan, XIII–XIV asr o‘zbek adabiy tilining ilk yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu asarda o‘nlab payg‘ambarlar, tarixiy shaxslar, xalqlar va urug‘lar nomlari keltiriladi. Antroponimlarning ko‘pligi ularni alohida tilshunoslik jihatdan o‘rganishni taqozo etadi. Antroponomika aslida grekcha – “odam” va “nom”, onomastikaning bir bo‘limi.¹ Antroponomika yirik makroko‘lam bo‘lib, birqancha mikroko‘lamga ega. Antroponomikaga kiruvchi birqancha mikroko‘lam tarkibi: Исмлар... лакаб... фамилия... отаисм... патроним... матроним... эпоним... тахаллус... геноним...² Ushbu o‘rinda “nisba” leksemasini qo‘shish mumkin. **Nisba** – bu arabcha so‘z bo‘lib, “nisbat berilgan” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu leksemaning ma’nosini aniqlash uchun nisbat leksemasiga nazar tashlaymiz. **NISBAT**– a. ... - munosabat, aloqa; qarindoshlik, o‘zaro bog‘lanish...³ Nisba asosan biror kishining qayerlik ekanini,

¹ Antroponimika - Vikipediya <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Antroponimika>

² Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент: Фан, 1965.- Б-44.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 3-jild. – B.378.

qaysi elat, qabila yoki kasbga mansubligini, biror bir hayotiy yoki diniy yo‘nalishi mansubligini ko‘rsatadi.

Asarning boshlanishi an‘anaviy hamd va na‘t qismlarida ham ham birqancha onomastik birliklar mavjud. Bu o‘rindagi nomlarni antroponim emas, balki teonimlar deymiz. Теонимия — Оллоҳнинг номи ва атрибутини ифода қилувчи ифода қилувчи атоқли отлар ва уларнинг мажмуи.⁴ Ushbu qismlarda islom diniga oid teonimlar qo‘llangan.

Asardagi antroponimlar turlariga qaytsak:

“Qissai Rabg‘uziy”da antroponimlar asosan quyidagi guruhlariga ajraladi:

1. Diniy-antropologik shaxs nomlari

Bu guruhga Qur‘on va Islom dini tarixida muhim o‘rin egallagan shaxslar kiradi: Odam Ato, Momo Havo, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Iso, Musho (Muso), Yusuf, Sulaymon, Dovud, Ayub, Shays, Yahyo, Lut, Is‘hoq, Yunus kabi ismlar. Na‘t qismida Muhammad S.A.V.ga berilgan sifat, ya‘ni Mustafo (tanlab olingan dovyurak) qo‘llangan. Demak, Mustafo ismi keng ma‘noda ijobiy laqab deb aytish mumkin. Shuningdek, muallif o‘z nomini hamd va na‘t qismidan so‘ng alohida antroponim sifatida qayd etgan...

Bu nomlar Islom dini orqali turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Ular ko‘pincha diniy axloq, sabr-toqat, tavba, ilohiy iltifot timsoli sifatida aks etadi.

2. Tarixiy va afsonaviy shaxslar:

Zulqarnayn (Iskandar Zulqarnayn) – afsonaviy shoh sifatida zikr etiladi.

Fir‘avn, Namrud – salbiy obraz sifatida ishlatilgan, zolim hukmdorlarni anglatadi.

3. Ayollarning ismlari:

⁴ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент: Фан, 1965.- Б-39.

Havo, Maryam, Soro (Sara), Zulayho, Omina kabi ismlar. Bu ismlar diniy rivoyatlar orqali kitobxon ongi va madaniyati bilan uyg'unlashgan.

Antroponimlarning semantik tahlili:

1. Ma'no jihatidan tasnifi

Timsolli antroponimlar: Ayub – “sabrli”, Yusuf – “go‘zallik timsoli”, Sulaymon – “donolik”, Lut – “ogohlantirish va hiyonatlarga chidam” kabi ma’nolarni ifodalab keladi.

Ilohiy bog‘liqlik bildiruvchi antroponimlar: Abdulloh – “Allohning quli”, Ishoq – “kulgi”, Yahyo – “hayot”.

2. Estetik va axloqiy yuklamalari

Asardagi har bir shaxs nomi faqat identifikatsiya emas, balki ma’naviy yuklama, axloqiy pand-nasihat vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, Yusuf timsoli nafaqat go‘zallik, balki iffat, sabr, kechirimlilik ramzidir.

Fonetik va morfologik xususiyatlar

“Qissai Rabg‘uziy”da ismlar arabcha yoki ibroniycha bo‘lsa-da, turkiy talaffuzga moslashtirilgan:

Ismoil – “Ismayil”

Musho – “Muso”

Yunus – “Yonus”

Ayub – “Eyub”

Bu esa XIV asr o‘zbek tilida arabcha-islomiy atamalarning qabul qilinishi va moslashtirilishining fonetik izlarini ko‘rsatadi.

Asarda keltirilgan shaxs ismlari o‘sha davr turkiy musulmon jamiyatining diniy dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, tarbiyaviy qadriyatlari bilan bog‘liq. Antroponimlar orqali muallif o‘quvchini ma’rifatga, e’tiqodga, sabr va toqatga

chaqiradi. Aslida “Qissasi Rabg‘uziy”dagi antroponimlarning o‘zi yaxshilikka va maxsus timsolga aylangan nomlarga aylanib ulgurgan.

“Qissasi Rabg‘uziy”dagi antroponimlar diniy, tarixiy va madaniy kontekstda semantik va funksional jihatdan juda boy. Ular faqatgina shaxslarni ifodalab qolmay, balki muayyan g‘oyalarni targ‘ib etuvchi, axloqiy timsollar sifatida xizmat qiladi. Bu asar o‘zbek onomastikasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Antroponimika - Vikipediya <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Antroponimika>
2. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент: Фан, 1965.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. Rabg‘uziy. “Qissasi Rabg‘uziy”. – T.: Fan, 1990.
5. Qur‘oni Karim tarjimasi. – T.: Hilol-nashr, 2017.